

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINI
UMUMMADANIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA
FOYDALANILADIGAN VOSITALAR**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12562170>

Shokirjonova Zuhraxon Murodjon qizi

talaba,

Farg'ona davlat universiteti

O'zbekiston, Farg'ona sh.

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishda foydalaniladigan vositalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

umummadaniy kompetensiya, ta'lim, tarbiya, mashg'ulot, vazifa. omil, dunyoqarash.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda – Konsepsiya) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

ASOSIY QISM

Davr talabi va jamiyat taraqqiyotiga mos umummadaniy kompetensiyani rivojlantirish usullarini takomillashtirish uchun sohada ilm-fanning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanish lozim bo'ladi. Bunda axborot-kommunikatsion texnologiyalarining imkoniyatlari cheksiz.

Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush

tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutar ekan, MTT tarbiyachilarida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish ular tomonidan tashkil etayotgan ta'lim-tarbiya jarayonida ham takomillashib borishi lozim.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan quyidagi maktabgacha ta'lim muassasasi uchun mashg'ulot ishlanmasi, nafaqat tarbiyalanuvchilarga turli bilimlarni berishga, balki tarbiyachining ham amaliy faoliyatini o'stirishga, ularda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlar mazmuni:

Mavzu. "Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi".

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va anglashga o'rgatish.

2. Bolalarning kattalar mehnati hamda sog'lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarini boyitish, kattalarning ijtimoiy hayotdagi faoliyati to'g'risidagi bilimlarini kengaytirish.

Tayanch tushunchalar: tevarak-atrof, muhit, jarayon, shakllanish, omil, tushuncha, odat, tasavvur, dunyoqarash, tafakkur, muloqot.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va anglashga o'rgatish.

Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, halqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy ma'naviyatini takomillashtirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analарimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloл g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish orqali ular tomonidan har tomonlama bilimlarni egallashi, psixik jarayonlarning rivojlanishi, qobiliyatlarini o'sishi, dunyoqarashini shakllanishi, axloqiy sifatlar, ijobiy xulq-atvor odatlarini o'zlashtirilishiga erishiladi.

Bolani o'rab turgan atrof-olam haqidagi tushunchalar: ona Vatanga muhabbat, ularni tariximiz va Sharqning buyuk allomalari, ularning hayoti va ijodi bilan tanishtirish, mashhur sarkardalar, bayramlar, xalq amaliy san'ati haqidagi

bilimlarini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” asosida ishlab chiqilgan.

“Ilk qadam” o‘quv dasturida turli yosh guruh bolalarini atrof-olam haqidagi tushunchalarini shakllantirishda “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi 6-7 yoshli bola kompetensiyalari bo‘yicha quyidagi bilimlarni egallashi ko‘zda tutiladi:

- atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko‘rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g‘amxo‘r munosabatni namoyon etadi.

Vatan, mahalla to‘g‘risidagi bilimlarni mustahkamlash borasida “O‘zbekiston - mening Vatanim” mavzuida bir oy davomida “Mening shahrim”, “Mening shahrim - mening mahallam”, “Mening shahrim - mening mahallam”, “Men va mening oilam”, “Men va mening do‘stlarim”, “O‘zbekistonning oq oltini”, “Transport bilan tanishuv”, “Yer usti transporti”, “Havo, suv va er usti transporti”, “Bizning yaxshi ishlarimiz”, “Barcha kasblar muhim”, “Vatan himoyachilari kuni”, “Bizning inoq mamlakatimiz”, “Bizning mamlakatimiz - do‘stlik va tinchlik mamlakati”, “Qo‘shni mamlakatlar” haqidagi tushunchalarini mustahkamlash; O‘zbek xalq og‘zaki ijodi mavzulari asosida bola qalbida o‘z millatiga muhabbat, milliy g‘urur hissini tarbiyalash.

Bolalarni tariximiz va Sharqning buyuk allomalari, ularning hayoti va ijodi bilan tanishtirishni davom ettirish; ulug‘ allomalar: Alisher Navoiy, Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, musavvir Kamoliddin Behzod haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash.

Bayramlar: Bolaning umumxalq bayramlari bilan tanishtirishda ularning psixologik xususiyatlarini va imkoniyatlarini hisobga olgan holda samarali natijaga erishishda mavzularni to‘g‘ri tanlay olish maqsadga muvofiqdir. 1-sentyabr - Mustaqillik kuni, 1-oktyabr - O‘qituvchilar va murabbiylar kuni, 8-dekabr - O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kun, 1-yanvar - Yangi yil bayrami, 8-mart - Xalqaro xotinqizlar bayrami, 21-mart - Navro‘z bayrami, 9-may - Xotira va qadrlash kuni haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytirish va boyitish; bolalar bilan birgalikda 1-iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish bayramlarini nishonlash; shakl va mazmun jihatdan xilma-xil bo‘lgan bayramlar, sayllarni muntazam ravishda tashkil qilib turish. Masalan, “Mehrjon”, “Qovun” sayli, qushlar, gullar bayramlari va boshqalar.

Mashhur sarkardalar: Bolaning ulug‘ sarkardalar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi bilimlarini kengaytirish;

O'zbekiston harbiy qo'shinlari va ularning vazifasi, 14-yanvar harbiylarning kasb bayrami ekanligi haqida tasavvurlarini kengaytirish.

Xalq amaliy san'ati: bolani o'zbek xalq amaliy san'ati, milliy hunarmandchiligidan: zargarlik, zardo'zlik, misgarlik, ganchkorlik kabilar bilan tanishtirish; xalq ustalari tomonidan tayyorlangan buyumlardagi; kashtachilarning tikkan so'zanalari, zargarlarning nozik did bilan yasagan taqinchoqlardagi go'zallikni, ranglar jilosini his qilishga undash. Shu tariqa bola qalbida xalq ijodiyotiga, amaliy san'at asarlariga nisbatan qiziqish hissini tarkib toptirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

MTTda milliy va umummadaniy kompetensiyani o'stirish darajasi dolzarb masala sanaladi. Bugungi kunga kelib texnika-texnologiyalarning tezkorlik bilan rivojlanishi natijasida ta'lim-tarbiya sohasida ham axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish taqozo etilmoqda.

Tadqiqot doirasida tarbiyachilarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish mazmuni, shakl, metod, vositalari aniqlashtirildi. Shu bilan birga maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari uchun maxsus mashg'ulot ishlanmalari ishlab chiqildi va uni amaliyotda qo'llashga shart-sharoitlar yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asadov Y.N. va boshq. O'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiya metodikalari // T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'PFITI, 2016. – 160 b. (4-5-b).

2. <https://lex.uz/docs/4327235?ONDATE=09.10.2020&ONDATE2=10.05.2019&action=compare>

3. Mirziyoyev Sh.M. 2017. 24-iyun. "Xalq so'zi" gazetasi.

4. Abduqodirov A.A., Begmatova N.H. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. – Qarshi, Nasaf nashriyoti, 2011. – 256 b.

5. Abdurahimova D.A. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi asoslari. Monografiya. – T.: 2012. –174 b.

6. A'zamova M.N. Maktabga tayyorlov guruhlarida tarbiyalanuvchilarida do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish: ped. fanl. bo'yicha fals. doktori (PhD)... diss. avtoreferati. –T.: – B. 11.

7. Allambergenov A.J. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida kasbiy texnologik kompetentlikni rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Nukus - 2020. 25 b.

8. Almeida L.S., Prieto M.D., Ferreira A.I., Bermejo M.R., Ferrando M., Ferrándiz C. Intelligence assessment: Gardner multiple intelligence theory as an alternative, Learning and Individual Differences, Volume 20, Issue 3, 2010. Pages 225-230.